

Shaxzoda G‘opporova

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, nomoddiy madaniy merosni ilmiy-tadqiq etish bo‘limi, kichik ilmiy xodimi

**O‘ZBEK FOLKLORIDA IJROCHILIK SAN’ATI, BADIK AYTIMLARINING
O‘RGANILISH TARIXI**

Annotatsiya: Qadimdan etnologik qatlamlardan bizgacha o‘tib kelayotgan kasalliklar va ularga shifo tilash yo‘lida ijrochi badikxonlarning, aytimlar aytishi va bemorga shifo tilash kabi marosimlari davom etib kelgan.

O‘zbek shomon folklorida badik aytimlari kishilarning kasalliklardan tuzatishiga ishonch bildirilganligi bilan ham muhimdir

Gulafshan, qizilcha, suvchechak, temiratki kabi xalq og‘zaki tilidan ko‘chib bizgacha yetib kelgan kasalliklar aytimlar orqali qaytarilgan. Ularning etnomadaniy muhitlar va qadimiy hayotiy asoslari, aytimlarning o‘rganilishi og‘izdan-og‘izga ko‘chishi ishonch qozonishi insonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Teri kasalliklarida aytimlar haqida gap ketganda diniy- ilmiy, tibbiyot jihatlarga aniqlik kiritish ayni mudaodir.

Aytim aytuvchi badiklar yillar davomida dunyodagi kasalliklar toshmalar va ularning davolash atimlari haqida gapirganlar.

Aytimlarni tibbiyotga ham o‘z tasirini ko‘rsatganligini tarixiy isbot qilinadi. Haligacha bu olam sirlari ochilmagan bo‘lsada badiklarning atimlari ko‘rsatmalari orqali bemorlar o‘z dardiga shifo topib kelayotganligi kundek ravshan. Maqolada shu mavzuda so‘z yuritiladi.

Калит сўзлар: афсун, диний-афсунлар, захар таъсир кучи, сўз сехри, инсу жинслар, «чаён», «сарик эшак», «илон», «хунук нарса» даво, айтимлар, гулафшон, темиратки, сувчечак, қизилча, ранг, термин, қушноч, бадикхон.

Абстрактный: Такие ритуалы, как совершение бадикханов, чтение поговорок и пожелание исцеления больному, продолжаются с древних времен.

В узбекском шаманском фольклоре поговорки бадика также важны, поскольку считается, что они излечивают людей от болезней.

Через поговорки были возвращены болезни, перекочевавшие к нам из народного языка, такие как оспа, корь, оспа, темиратки. На человека оказывает влияние его этнокультурная среда и древние жизненные устои, заучивание поговорок, передача из уст в уста, обретение уверенности.

Важно уточнить религиозно-научные и медицинские аспекты кожных заболеваний.

В течение многих лет кассиры говорили о мировых вспышках болезней и методах их лечения.

Исторически доказано, что поговорки оказали влияние на медицину. Хотя тайны этого мира еще не раскрыты, ясно как день, что больные излечиваются от недугов по наставлениям духов бадиков. Эта тема обсуждается в статье.

Ключевые слова: заговор, религиозные заговоры, действие яда, магия слова, инсулин, «скorpion», «желтый осел», «змея», лечение «гадостью», поговорки, гулафшон, железо, водяная оспа, красная, цвет, термин, кушnoch, бадикхан.

Abstract: Rituals such as performing badikkhans, reciting sayings and wishing for healing to the patient have been continued since ancient times.

In Uzbek shaman folklore, badik sayings are also important because they are believed to cure people from diseases

Diseases that have migrated from the folk language to us, such as smallpox, measles, smallpox, and temiratki, have been brought back through sayings. Their ethno-cultural environments and ancient life foundations, the learning of sayings, word-of-mouth transmission, gaining confidence, have an impact on a person.

It is important to clarify the religious-scientific and medical aspects when it comes to skin diseases.

For years, tellers have talked about the world's disease outbreaks and their cures.

It is historically proven that sayings have had an effect on medicine. Although the secrets of this world have not yet been revealed, it is clear as day that patients are being cured of their ailments through the instructions of the spirits of the Badiks. This topic is discussed in the article.

Key words: zagovor, religioznye zagovory, deystvie yada, magiya slova, insulin, «scorpion», «jeltyy osel», «zmeya», lechenie «gadostyu», povokarki, gulaafshon, jelezo, vodyanaya ospa, krasnaya, tsvet, termin, kushnoch, badikkhan.

O‘zbek folklorida aytimlar bizgacha ma’lum bo‘lgan janrdir. Aytimlar bashoratchilar, folbinlar, qadimiylar marosimlar o‘tkazadigan momolardan va chilton yo‘qlash qo‘l berish marosimlarida ishlatib kelmoqda. Bu ijrochilik aytimlari o‘ziga xos tarixga egadir.

Badik aytimlari xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lib yillar davomida bizgacha yetib kelgan. Bunda asosan xalq tilida gulafshan, qizilcha, suvchechak, toshma kasalligi orqali davolovchilar og‘zidan ko‘chirib yozib olingan. Bu badik aytimlari «Gul», «gulafshon», «ko‘ch-ko‘ch» nomlari bilan ham yuritiladi. Xalq tilida gulafshan nomi bilan mushhur bo‘lgan kasallik tibbiyotda dermatit va psareaz ham deyiladi. Dermatit bilan og‘rigan bemorni tabobot bilan davolashda aytim aytuvchi bugungi kunda ham qo‘yidagi usulda aholini davolab kelmoqda. Jumladan, u arpa donlari orqali toshma toshgan kishining terisi ustiga ishqalab o‘zining

aytimlarini o‘qiydi. “Bad baxt chiq-chiq chiqmasang senga lanat chiqarmasam menga lanat” deb bemorni yelkasini sekin qo‘li bilan silab aytimni bir necha bor qaytarib aytadi. Keyin bemorga parhez taomlar iste’mol qilishni buyuradi. Unga tovuq shurva, yog‘siz taomlar va ko‘proq mevalardan iste’mol qilishni tayinlaydi. Bemor uch kun davomida tabibning uyiga qatnab yuqoridagi kabi davolanish jarayonini boshidan kechiradi. Shundan so‘ng tabibning maslahatiga ko‘ra, qirq kun davomida parhez taomlar yeb faqatgina o‘ziga muljallangan idishlarda ovqatlanadi. Bemorga bu vaqt oralig‘ida chilla saqlanadi. Bunda bemorni uyiga hech kim taom yegulik olib kelmaydi va hech kim yegulik ham olib ketmaydi. Davolovchi badik aytimini aytib bemorga shifo tilaydi. Bemor esa bu holatdan ruhan kuch olib tuzalishga intiladi.

Suvchechak bu teridan yorib chiqadigan kasallik bo‘lib u insonning suyaklarini qaqshatib isitmalatib biroz holsiz holatida tanaga tarqaladi. Suvchechakda asosan yosh bolalar o‘smirlar kasallanadi. Bunda Badikxonlar aytimi aytilmaydi ammo kun ora issiriq tutatib bolani suvga yuvintirmasdan ovqatlardan jiddiy parhez qilinadi. Bemorga faqat sutli taomlar va badikxonlar tomonidan shirguruch ovqati pishirib berish aytildi. Suvchechak kasalligida badikxonlar aytishicha kasallikning genizisi tarixida parilar hukmronligi bo‘lib insonni ruhini egalik qilish asnosida yigirma kun tanaga suv toshmalari toshib chiqadi. Oqibatda bemor o‘zini holsiz sezadi. Bemor asosan uyda o‘tirgan holatda isiriq tutatilgan xonada alohida qilinishi tavsiya etiladi. Tibbiy qarashlarda ham dorilar yozib beriladi. Shifokorlar ham bu kasallikni tarqab ketmasligi uchun asosan alohidalash zarurligi va havoning tozaligi muhim omil sifatida isiriq tutatishni tavsiya qilishadi. Kasallik kunaro sekinlik bilan qorayib to‘kilib tushadi. Bu vaqt oralig‘ida bemor bir uyda alohidalanadi. Bemorga ko‘proq kasallikni haydash uchun parilar, momolar taomi deya shirguruch va sutli ovqatlar tavsiya qilinadi. Badikxonlarning aytishicha bu kasallikni egachiligi parilar bo‘lib ular to tanani tark qilgunicha sutli va guruchli taomlar berish aytilgan.

Badikxonlar kishi tanasiga qizilcha, eshakemi va boshqa toshmalar chiqqanida go‘yo ularni «daf etish» uchun badikxonlar (badik aytuvchilar) tomonidan ijro etilgan. Badiklarning toshmalari Turkiy xalqlarning deyarli barchasida uchraydigai bu xil asar asosan, badikxon bilan bemor vujudiga joylashib olgan «yovuz ruh» orasidagi kurashni aks ettiradi.

Teriga toshma toshganda badikxonlar shu toshmani sabablarini parilar va ularning inson ruhiga ta’sirini kuchayishini oldini olish uchun ham aytimlar aytib bemorni ruhini poklaydi.

Badiklar izchil va turg‘un shaklga ega bo‘ladi, hajmi turlicha, keskin buyruq ohangida ijro etiladi. Badiklarning tili va badiiy-ifodaviy vositalari xalq so‘z san’ati hodisasi sifatida o‘rganiladi. Bunda el orasida baxshi nomini olgan tabiblar bemorni davolash vaqtida qo‘liga doira olib uni urib chalish orqali badik aytimlarni aytadi. Ushbu aytimlar shu tarzda bo‘ladi.

O‘zing ketgin balolar,

Xudo bersin davolar,

Parilarim kelingiz,

Sizni pok sutim chorlar, deya badikxon aytimlar aytib bemorga qarab suf-suf deya dam uradi. Gohida tanaga temiratki toshsa teri usti oppoq bo‘lib gullab ketadi. Shunda badikxon toshmani ustidan tilib kam miqdorda qon chiqishini kuzatib shunday deydi.

Oq gullarim to‘kilsin.

Ruhidan gullar ketsin,

Oq parilar yig‘ilsin,

Xudo shifosin bersin, deb bemorga parilardan ketishini so‘rab shifo tilanadi.

Badikxonlarning aksariyati doira olib o‘qiydigan baxshilar bo‘lsa, aksariyati qushnochlardir. Qushnochlar ham parilar yo‘lidagi barcha aytimlarni aytib davolaydi. Qushnochga bemorni olib borishdan oldin bitta oq tovuq olib boriladi. Shunda qushnoch tovuqning tojini kesib qoni chiqgach bemorni peshonasiga va badaniga surtadi. Terisiga toshgan kasallikdan guyoki parilar shu insondan ehson kutgan deya tovuqni so‘yib bemorga shurva pirishib berishni tavsiya qiladi. Qonlash jarayonida, Parijonlarim, qoningizga qon berdik. Joningizga jon berdik, bolaginamni tinch qo‘yingizlar, hayotiga baxt beringizlar, deya aytim aytadi. Bemorni toki kun botgunicha suvga yaqin bo‘lmasligi buyuriladi. Kech shom kirmasdan bemor tanasidagi qonni artib tashlash kerakligi aytildi.

Qadimiylar asosida yuzaga kelgan, so‘zning sehr-jodu kuchiga egaligi bilan bog‘liq bo‘lgan afsun-duolar mazmunan teranligi, tarixiy asoslari juda olis zamonlarga borib taqalishi, o‘ziga xos hayotiy-maishiy vazifalari va xalq tabobatida ijro o‘rniga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq tabobatida teri kasalliklari va ko‘z og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, qorin og‘rig‘i, bosh og‘rig‘i kabi xastaliklarga qarshi yo‘naltirilgan afsun-duolarda duoxon va xastalikni keltirib chiqargan ziyon yetkazuvchi obrazlar haqida badikchilarning aytimlari misol sifatida izohlaniladi. Bunda tibbiyotga oid birliklar, rang bilan bog‘liq kasalliklar, teri bilan bog‘liq toshmalarga aytildigan qo‘shiqlar davo vositasi sanalashi izohlaniladi.

O‘zbek folklorining leksik tarkibi uning janrlari orqali ifodalanadi. Ajdodlarimizning umidbaxsh orzularini o‘zida mujassam etgan folklor janrlaridan biri afsun-duolar hisoblanadi. Azal-azaldan tasavvurlar asosida yuzaga kelgan, so‘zning sehr-jodu kuchiga egaligi bilan bog‘liq bo‘lgan afsun duolar mazmunan teranligi, tarixiy asoslari juda olis zamonlarga borib taqaladi. Bu jarayonlar o‘ziga xos hayotiy-maishiy vazifalari va xalq tabobatida ijro o‘rniga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek folklorshunosligining filologik yunalishdagi fan sifatida shakllanishi X.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo‘lib qoqimchi, azayimxon va baxshilarning davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni qaytarma, badik namunalarini yozib olgan. Qadimdan sof ilmiy meditsina vujudga kelmagan davrlarda kishilar turli xildagi kasalliklardan, tasodifiy falokatlar (ilon, qoraqurt, chayon chaqishi) kabilardan tabobatdagi afsun-duolar orqali qutulganlar. Folklorshunos olima S.Mirzaevaning «O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati» nomli monografiyasida xalq afsun-duolari quyidagicha tasniflanadi. A) diniy afsun-duolar. Bu turdagilari afsun-duolar kishilar orasida keng tarqalgan bo‘lsa ham, biroq ular tarixan xalq afsunduolaridan farqlanib turadilar. Diniy afsun-duolar «Qur’on» va boshqa muqaddas kitoblardan olingan bo‘lib, asosan o‘qimishli kishilar-mullalar, din ulamolari, eshon va otinbibilar tomonidan o‘qilgan. B)

sof xalqona afsun-duolar. Bular o‘z ildizlari jihatidan xalqning ruhlar, dastlabki ajdodlar haqidagi e’tiqodiy qarashlari bilan aloqadorlikda vujudga kelganlar.

¹ Badik aytimlari ham afsun kuchiga ega duolar bilan qo‘llaniladi. Bir vaqtarda keyinchalik, bir tomonidan, uzoq davrlar mobaynida turli diniy tasavvurlar tazyiqi ostida, ikkinchi tomonidan, yetmish yildan ortiqroq davom etgan xudosizlik g‘oyasi ta’sirida xalq afsun-duolarining kattagina qismi istifoda etilmay asta-sekin unutila boshlandi. Bu xildagi afsun-duolar ilmiy adabiyotlarda «shomon folklori», «shomon aytimlari» ham deb yuritiladi.

Afsun o‘qishda bir bemorga favqulotda ilon chaqishi yoki chayon chaqishi bilan keladigan baloni daf etish uchun keksa badikchilar yoki qushnochlarning atimlari o‘qitiladi. Bunda bemorning chaqib olgan joyiga qisib latta bog‘ich bog‘lanadi. Badikxon o‘z aytimini ruhan berilib baland ovozda o‘qiydi. Shunda bemorga ruhiy madad bo‘lib samoviy parilardan yordam kelishiga ishonch bildiriladi. Natijada shu zaharlangan tana qismi kesiladi duo o‘qish jarayonida o‘sha joydan qora qon sizib zahar chiqishi holatlari kuzatiladi. Badikxon yoki qushnoch tomonidan, ko‘ch-ko‘ch yo palakat ket, ko‘ch-ko‘ch yo balo daf bo‘l, kabi baland ovozda qo‘sishlar kuylanadi.

Xalq afsun-duolariga xos janr alomatlaridan yana biri ularning hamma vaqt buyruq, (imperativ) ohangida ijro etilishi sanaladi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi o‘rtasida keng istifoda etiladigan istalgan afsun-duoni olmang, unda hamma vaqt keskin buyruq ohangi mavjudligini ko‘ramiz. Masalan, qoraqurt chaqqanda o‘qiladigan afsun-duodan keltirilgan quyidagi parchada ham asar matni keskin buyruq ohangi bilan yakunlanadi: Ola g‘undol, balo g‘undol, Kal keldi, kadi keldi. Payg‘ambarning so‘zi bilan Xudoyimning amri bilan. Arbaytigan olim o‘zim, Qo‘ymaytigan zolim o‘zim. Kuf-suf, chiq, kuf-suf, chiq! Keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, qushnoch (davolovchi) bemor badaniga joylashib olgan ziyon-zahmat bilan kurashga kirishar ekan, eng avvalo yaratuvchi tangriga, keyin anbiyo va avliyolarga, turli kasb-hunarlarning pirlariga murojaat qilib, ulardan madad tilaydi. Bemorni tushkunlikdan olib chiqish vositasi sifatida alaslash ham zarurati tug‘iladi. Bunda ikkita uzun kesilgan toza ipak matoni olib uchidan olov yoqiladi va bemorni o‘tqizib boshidan uch marta aylantiriladi. Har uch marta aylantirib alaslangandan so‘ng bemorni yangi joyga ko‘chiriladi. Uch joyga ko‘chirib issirig‘ tutatib jarayon davom ettiriladi. Alas so‘zları, Alas-alas, pok qilg‘in, Alas-alas, pok qilg‘in. Ziyonlardan xolos et, Zahmathlardan xolos et. Alas-alas, alas-alas, Qon tilasang qon berayin, Jon tilasang jon berayin, Bu bechorani qo‘y tegma. Bu bechoradan ket, tegma! Alas-alas, alas-alas. Alas-alas qilish paytida aytilgan asosiy matn yuqorida gidek bo‘lib, u qushnoch o‘yinlarining mazmunini oydinlashtiradi. Bu mazmun esa bemor tanasidan yomon ruhlarni quvish va uni sog‘aytirishga da‘vat etishdan iborat. Alaslab bo‘lgach qushnoch bemorni turg‘izib yuzlariga pok suvdan sepib uyga olib kiradi. Uyda bemorga qur’oniy oyatlardan o‘qib dam uriladi. Albatta, o‘tmishda alas-alas marosimi paytida ijro etilgan aytimlar rangbarang bo‘lgan bo‘lishi lozim. Ammo bizga qadar ular to‘la va o‘z shukuhida yetib kelmagan Ma‘lumki, ibridoiy kishilar qoraqurt, chayon, ilon yoki boshqa hashorat, maxluqlar chaqishi oqibatida kishi tanasiga kiritilgan zaharni kasallik sifatida tasavvur qilganlar. Bu kasallik esa ma’lum bir sehrli nafasga ega bo‘lgan kishilar amriga

Afsun-duolarda leksik birliklar qamrovi va unda xalq jonli tilining mavqeい Navruzova Muyassar G‘aybullaeva Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

bo‘ysunadi deb qaralgan. Mana shuning uchun ham avrovchilar o‘z afsunlari ijrosida o‘zi yoki boshqa avliyo, pirlar madadiga bo‘ysunib ziyon-zahmatni, kasallikni kishi tanasini tark etishga da’vat etadilar. Aslida esa bemor tanasiga kiritilgan zahar ta’sir kuchining sustlashishi yoki uning butunlay tanani tark etishi avrovchining xatti-harakati, so‘z terapiyasi, ruhiy holati orqali zarar ko‘rgan kishi ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishi, uning organizmida zaharga qarshi kurashuvchi holatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bemorning ruhiy holati yengil bo‘lsa kasallikni yenga olmaydigan holatga tushishi tabiiydir. Shu bois ham badiklar yoki qushnochlar o‘zlarining baland ovozi va ruhiyatga ta’sir ko‘rsata oladigan sehrli so‘zları bilan kasallikni tanaga singib ketmasligini oldini olib ruhiy madad bo‘la oladi deya ijroda aytimlarni aytadi. Afsun-duolarning folklorning mustaqil janr sifatidagi o‘ziga xosliklari ularning obrazlari tarkibida ham unga qarshi aytildigan aytimlardagi so‘z sehrida ham ko‘zga tashlanadi. Bu obrazlar esa afsun-duoning kimga yoki nimaga qarshi yo‘naltirilganligiga qarab turlicha ko‘rinishga, sifatga ega bo‘ladi.

O‘zbek xalq tabobatida ko‘z og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, qorin og‘rig‘i, bosh og‘rig‘i kabi xastaliklarga qarshi yo‘naltirilgan afsun-duolarda duoxon va xastalikni keltirib chiqargan ziyon yetkazuvchi obrazlari o‘rtasidagi kurash ifodalanadi. Afsun-duoning kasalikka qarshi yo‘naltirilganligi yoxud nima yoki kimni yoqlashga qaratilganligiga qarab ularda ishtirok etuvchi obrazlar tarkibi, ularning funksiyalari ham o‘zgarib boradiki, bunday holat xalq tabobatiga xos bo‘lgan xususiyat sanaladi. Avrash afsunlarida muqaddas “Qur‘on”dan olingan suralar bilan ham o‘qib qaytariladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.Afsun-duolarda leksik birliklar qamrovi va unda xalq jonli tilining mavqeい Navruzova Muyassar G‘aybullaevna Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
- 2.Gulafshon gulda bo‘lar, ISSN 2181-1717 (E) Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya (2023 god №1) <http://interscience.uz> 97
3. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 yil №1) ISSN 2181-1709 (P) 98 Education and innovative research 2023 y.
- 4 Sarimsoqov B. So‘zning magik qudratiga asoslangan marosim folklori // O‘zbek folklori ocherklari. 3 tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1988. – B.170-186.
- 5 Mirzaeva S. «O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati» Monografiya.Toshkent. 2005. S. 67.
6. Tog‘aeva D. Ins-jinslar haqidagi o‘zbek og‘zaki hikoyalarining obrazlar sistemasi. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. – 2006.